



## SAMARQAND VILOYATI URGUT TUMANI HOKIMINING QARORI

Urgut shahar, Navoiy shoh ko'chasi 104-uy.

2022 - yil 16 - avgust

255-7-105-Q/22

Urgut tuman hokimligi

### **Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 11-avgustdagi 325-7-0-Q/22-sonli “Viloyat hokimligining 2022-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan hujjatlar ijrosini samarali tashkil etish, tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish va asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishish maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 11-avgustdagi 325-7-0-Q/22-sonli “Viloyat hokimligining 2022-yil II yarim yillik ish rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar, 2022-yilning II yarim yilligida tuman hokimining o‘rinbosarlari, bo‘lim, korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni va ushbu farmon bilan tasdiqlangan “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid dasturi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 6-noyabrda Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz” nomli ma’ruzalari;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining 2020-yil 21-yanvardagi

qo'shma majlisida taqdim etilgan Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijro intizomini mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etishda barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish bo'yicha 2021-yil 10-fevraldagi PF-6166-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining respublika hududlaridagi uchrashuvlar va yig'ilishlaridagi ma'ruzalari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevral kuni Samarqand viloyatiga tashriflari davomida belgilangan topshiriqlar;

2022-yil uchun tasdiqlangan hududiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish.

3. Tuman hokimligining 2022-yil II yarim yillik ish rejasi 1-14 - ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o'rinbosarlari (U.Kamolov, Sh.Aliqulov, T.Maxmatmurodov, B.Tugalov, A.Eshonqulov, G.Nuriddinova, O.Qodirov), maslahatchilari, guruh rahbarlari va hokim yordamchilari:

2022-yil II yarim yillik ish rejasida belgilangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini, ish rejani bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borilishini va qat'iy nazorat o'rnatilishini ta'minlasin;

har oylik shaxsiy ish rejasini tasdiqlash va uning bajarilishini tahlil qilib borilishini davom ettirsin;

doimiy va tizimli asosda - hokimlik apparatida va idoraviy mansub tarkibiy bo'linmalarda ijro intizomi holatini (ishlab chiqilgan jadvallariga muvofiq) tanqidiy o'rganib, muhokama etsin;

2023-yil 10-yanvargacha 2022-yilning II yarim yillik ish rejasining bajarilishi tahlili va 2023-yil I yarim yillik ish rejasi loyihasini tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisiga taqdim etilishini ta'minlasinlar.

5. Tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi Q.Murtozayev:

tuman hokimligining 2022-yil II yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning bajarilishini doimiy ravishda nazorat qilib borsin va har oy yakuni bilan bajarilishi yuzasidan tuman hokimiga axborot kiritib borsin;

2023-yil 15-yanvargacha 2022-yilning II yarim yillik ish rejasining bajarilishi tahlili bo'yicha ma'lumotlarni viloyat hokimligiga taqdim etsin.

6. Tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi Q.Murtozaev "Ijro.gov.uz" tizimida hujjatlarning bajarilishi yuzasidan doimiy ravishda axborot kiritib borsin va muhokamalar tashkil etsin.

7. Tuman hokimining o'rinbosarlari, maslahatchilari, guruh rahbarlari, yordamchilari mutaxassislari (U.Kamolov, Sh.Aliqulov, T.Maxmatmurodov, B.Tugalov, A.Eshonqulov, G.Nuriddinova, O.Qodirov), tarkibiy bo'linmalar tuman hokimligining 2022-yil II yarim yillik ish rejasida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlasin va har oy yakuni bilan keyingi oyning 5-sanagacha bajarilishi yuzasidan tegishli ma'lumotlarni tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisiga taqdim etib borsin.

8. Tuman hokimligi, korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari bir hafta muddatda mazkur qarorda hamda qaror bilan tasdiqlangan ilovalarga muvofiq 2022-yilda belgilab berilgan vazifalarni bajarish bo'yicha ishga solinmagan zaxiralarni safarbar etishga va qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishga asosiy e'tiborni qaratgan holda 2022-yilning II yarim yillik ish rejalarini ishlab chiqib, tasdiqlasin.

9. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o'z zimmasida qoldiraman.

**Tuman hokimi v.v.b**



**B.Jabborov**

Urgut tuman hokimining  
2022 yil 16 avgustdagi  
255-7-105-Q/22-son qaroriga  
1-ilova

## Urgut tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari kompleksining 2022-yil II yarim yillik

### ISH REJASI

№	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Muddati	Mas'ullar
1.	Viloyat hokimligining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tegishli bo'lim va tashkilotlar.
2.	2022-yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori M.Xoliqov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari, tegishli tashkilotlar rahbarlari
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2022 yillarda respublika hududlariga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonnoma va viloyat xokimligining qarorlari va bayonlaridagi topshiriqlarni mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda sifatli bajarilishi bo'yicha muntazam monitoring olib borish.	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori M.Xoliqov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari, tegishli tashkilotlar rahbarlari

4.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori M.Xoliqov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari, tegishli tashkilotlar rahbarlari
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2022 yil 30 iyun kuni "Yoshlar kuni"ga bag'ishlangan ma'ruzasidan kelib chiqadigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tegishli bo'lim va tashkilotlar.
6.	Samarqand viloyat hokining 2021 yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son qarori ijrosini ta'minlash haqida"gi 223-7-Q/21-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, tuman tijorat bank rahbarlari, tuman hokimligi Moliya bo'limi U.Raxmatillayev, tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov.
7.	Urgut tumnida 2022-yilda amalga oshiriladigan sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalarini rivojlantirish loyihalarini reja grafik bo'yicha II yarim yillikda rejalashtirilgan loyihalarni bajarilishini ta'minlash	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori M.Xoliqov, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari,

8.	2022-yil II yarim yillikda amalga oshirilishi rejalashtirilgan Yangi ish o'rinlari yarmarkalarini o'tkazish borasida hududdagi ishsiz qatlamni to'liq jalb etish choralari ko'rish hamda ularni doimiy ish bilan ta'minlashni tashkil etish. Tumandagi korxonalar, tashkilot, muassasa hamda tadbirkorlik sub'ektlari bilan uzviy aloqani ta'minlash orqali ulardagi mavjud bo'sh ish o'rinlari hamda yangitdan yaratilgan ish o'rinlariga Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga ish so'rab murojaat qilgan fuqarolarga tavsiya etish orqali ularni bandligini ta'minlash.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori M.Xoliqov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari, tegishli tashkilotlar rahbarlari
9.	2022-yilda soliq tizimiga kiritilgan o'zgarishlarni ommaviy axborot vositalarida va tadbirkorlik sub'ektlari orasida keng muhokama qilishni har hafta amalga oshirish	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, Moliya bo'limi mudiri U.Raxmatillayev, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari
10.	Urgut tuman byudjetiga 2022-yil II yarim yillik uchun belgilangan prognoz ko'rsatkichlarni so'zsiz bajarilishini ta'minlash.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, Moliya bo'limi mudiri U.Raxmatillayev, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari
11.	Urgut tumanida 2022-yil II yarim yillikda kamida 3000 ta yashirin ish o'rinlarini legallashtirish choralari ko'rish.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori M.Xoliqov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov
12.	2022 yil II yarim yilligida tumanda 2021 yilgi ko'rsatkichdan kam bo'lmagan miqdorda tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etilishini tahlil qilish.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Tuman tadbirkorlikga ko'maklashish markazi, tuman Adliya bo'limi.

13.	Samarqand viloyat hokining 2022 yil 26-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son farmoni ijrosini ta'minlash haqida"gi 190-7-0-Q/22-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, tuman hokimligi Moliya bo'limi U.Raxmatillayev, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov.
14.	Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash. ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalarni takomillashtirish to'g'risida viloyat hokimligiga qarori loyihasiga takliflar ishlab chiqish	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tuman Adliya bo'limi, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori M.Xoliqov, tegishli bo'lim va korxonalar rahbarlari.
15.	Samarqand viloyat hokining 2021 yil 28-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrda "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son qarori ijrosini ta'minlash haqida"gi 223-7-Q/21-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, tuman tijorat bank rahbarlari, tuman hokimligi Moliya bo'limi U.Raxmatillayev, tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi, tuman tadbirkorlikga ko'maklashish markazi, tegishli bo'lim va korxonalar rahbarlari.
16.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-sonli qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish va ijrosini ta'minlash.	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori M.Xoliqov, Tuman DSI boshlig'i.Suvonov, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari, tegishli tashkilotlar rahbarlari

17.	Tumanning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari YaHM, sanoat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi, pudrat ishlari, chakana savdo, pullik xizmat ko'rsatish prognoz parametrlarini oylik va choraklik tahlil qilish, natijalari bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi boshlig'ining o'rinbosari O.Suyunov, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari, Statistika bo'limi D.Tursunqulov
18.	Tuman mahalliy byudjetining daromadlar bazasini ko'paytirish hamda soliq solinadigan bazani kengaytirgan holda byudjet daromadlarining shakllantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-avgustdagi PF-5499-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi 445-sonli "Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zahiralari aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash.	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, tuman hokimligi Moliya bo'limi U.Raxmatillayev, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari
19.	Belgilangan soliq tushumi prognozlari doirasida tushumlar tushishi hamda qo'shimcha manbalar aniqlanishi va davlat byudjetiga undirilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning 2022 yil II yarim yilligida bajarilishini tahlil qilish.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, Tuman DSI boshlig'i O.Suvonov, tuman hokimligi Moliya bo'limi U.Raxmatillayev, tegishli bo'lim va korxonalar rahbarlari.
20.	"Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolar bilan ishlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirilishini ta'minlash	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, tuman hokimining tegishli o'rinbosarlari, tumandagi tegishli tashkilotlar rahbarlari
21.	"Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan oilalarning farzandlari uchun, maktab formasi hamda o'quv qurollarini sotib olish maktab formasi hamda o'quv qurollarini sotib olish ushbu chora-tadbirlarni qonunchilikda belgilangan manbalar hisobidan o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilishini ta'minlash.	2022 yil avgust	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Kamolov, tuman hokimligi Moliya bo'limi U.Raxmatillayev, tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi, Xalq ta'limi bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, tegishli bo'lim va korxonalar rahbarlari.



22.	<p>“Samarqand viloyat hokining 2021-yil 9-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari (faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-31-son qaror ijrosini ta‘minlash haqida”gi 175-7-0-Q/21-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash</p>	2022 yil avgust-dekabr	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Kamolov, Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tuman bo‘limi A.Almasov
23.	<p>2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining taqchilligi belgilangan prognozlardan oshmasligini ta‘minlash va byudjet xarajatlarini maqbullashtirish choralarini amalga oshirish.</p>	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Kamolov, Tuman DSI boshlig‘i O.Suvonov, tuman hokimligi Moliya bo‘limi U.Raxmatillayev, tegishli bo‘lim va korxonalar rahbarlari.
24.	<p>Tumanda importni optimallashtirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash ishlarini tizimli tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.</p>	Doimiy	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Kamolov, Tuman DSI boshlig‘i O.Suvonov, tuman hokimligi Moliya bo‘limi U.Raxmatillayev, tumandagi barcha tijorat bank boshqaruvchilari

Urgut tuman hokimining  
2022 yil 16 avgustdagi  
255-7-105-Q/22-son qaroriga  
2-ilova

**Urgut tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Aliqulov Shoxrux Musirmonovichning  
2022-yil II yarim yillik  
ISH REJASI**

T/r	Ustuvor vazifalar. O‘rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas’ullar
1.	2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
2.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-sonli farmoni va “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qaroridan kelib chiqadigan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
3.	Barcha turdagi murojaatlar ijrosini ta'minlash yuzasidan muhokama qilish.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
4.	Murojaat qilib kelgan fuqarolarni qabul qilish va kompleks tashkilotlarda uchrayotgan muammolarni o'rganish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
5.	Tuman hokimligining apparat yig'ilishida ishtirok etish hamda tuman hokimi bilan hududlarda olib borilayotgan qurilish ishlari tanishish.	Har hafta seshanba kuni	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari
6.	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi tashkilotlar bilan yig'ilish o'tkazish va haftalik ish rejani muhokama qilish.	Har hafta shanba kuni	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-sonli farmoni ijrosini ta'minlash.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-76-sonli qarori ijrosini ta'minlash.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
9.	Uy-joy-kommunal xo'jaligi, ijtimoiy soha obyektlari va boshqa sohalarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish va energiya samaradorligini oshirish.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
10.	"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida hududlarning "o'sish nuqtalari"dan kelib chiqib, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurishga alohida e'tibor qaratish.	2022-yil 1-dekabr gacha	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
11.	Tuman aholisining ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, tuman markazida oqova suv tizimlarini yangilash.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
12.	"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida kuz mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, turli daraxt ko'chatlari zaxirasini yaratish.	Belgilangan muddatlarda	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
13.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi "2022-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-98-sonli Qarori ijrosi yuzasidan tumanda qurilgan, rekonstruksiya, mukammal ta'mirlashga tushgan obyektlarning sifatli va o'z vaqtida qurilib foydalanishga topshirilishini nazorat qilish.	Belgilangan muddatda	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
14.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-dekabrda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi PF-32-sonli Farmoyishi ijrosi bo'yicha tashkil etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivida olib borilayotgan qurilish ishlarini nazorat qilib borish.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-46-sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida xalqaro ahamiyatdagi M-39 avto yo'lining o'ng va chap tomonlarida ekilgan daraxt ko'chatlarini sug'orish choralarini ko'rish va nazorat qilish.	Belgilangan muddatda	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
16.	Tumandagi mahalla fuqarolar yig'inlarida sayyor qabullar o'tkazish.	Belgilangan grafik asosida	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
17.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Ochiq budget" axborot portalida openbudget.uz sayti orqali tanlov g'olibi deb topilgan fuqarolarning joylarini borib ko'rish.	Doimiy	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.
18.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi "Hududlarda shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalarini sement-beton qoplama bilan qurish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-249-sonli qarori bo'yicha Bog'bon va Oqtosh mahallalarida ichki yo'llarni sement-beton qilish ishlarini nazorat qilib borish.	2022-yil 15-oktabrga qadar	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.

T/r	Ustuvor vazifalar. O'rganiladigan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
19.	Tumanda Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko'p kvartirali uy-joy fondini 2022/2023-yillar kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlash va ko'mir zaxiralarini yaratish.	2022-yil 15-sentabrga qadar	Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari kompleksiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar.

Urgut tuman hokimining  
2022 yil 16 avgustdagi  
255-7-105-Q/22-son qaroriga  
3-ilova

## Urgut tumani hokimining Investitsiyalar va tashqi savdo masalalari bo'yicha o'rinbosarining

2022-yil II yarim yillik

### ISH REJASI

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
1a. 2022-yil I yarim yilligida Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalari			
1	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 2022-yilgi Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalarni so'zsiz va sifatli bajarish.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
3	Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturi doirasida tarmoq korxonalarini va hududlarning eksport salohiyatini hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasida belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar



T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6166-sonli farmonida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
5	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
6	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-2022-yillarda respublika hududlariga tashriflari yakunlari yuzasidan tasdiqlangan bayonlarning kompleksga birlashtirilgan bo'lim va tashkilotlarda bajarilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
7	2018-2021-yillarda tasdiqlangan "yo'l xaritalari"da nazarda tutilgan tadbirlarning kompleksga birlashtirilgan korxonalar va tashkilotlarda bajarilishini ta'minlash (6-ilova).	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
8	Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish va industrial siyosat amaliyotga tatbiq etilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini ijrosi hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish bo'yicha belgilangan topshiriqlar bajarilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
9	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to'g'risida" PQ-72-sonli qaroriga muvofiq Urgut tumanida 2022-yil yakuniga qadar 6 ta yangi yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlari hamda 49 ta hududiy loyihalarni foydalanishga topshirish hisobiga 264 ta ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
10	2022-yilning II yarim yilligida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularning so'zsiz bajarilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
11	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining eksport ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2021-yil 28-dekabrda qaroriga muvofiq joriy yilda tumanning eksport salohiyatini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
12	Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi qarorlarini so'zsiz ijrosini ta'minlash. 2022-yilning II yarim yilligida tuman bo'yicha jami 45 mln dollardan kam bo'lmagan miqdorda eksportni amalga oshirilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
<b>1b. 2022-yil I yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha takliflari</b>			
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning viloyatga tashriflari davomida taqdimoti o'tkazilgan va tasdiqlangan loyihalar bo'yicha investitsiyalarni o'zlashtirish va loyihalarni ishga tushirishni jadallashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	II yarim yillikda tarmoq jadvaliga muvofiq	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
2	Hududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali qo'shimcha yangi ish o'rinlarini tashkil etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hamda hududning investitsiya va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
3	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalari o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini hamda 2022-yilning III va IV choraklariga belgilangan prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishini ta'minlash.	2022-yil oktabr-dekabr	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
4	Kelgusi yillarda Investitsiya dasturiga kiritish uchun investitsiya loyihalarini aniq mezonlar asosida tanlash orqali dastlabki istiqbolli loyihalar zaxirasini shakllantirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	2022-yil oktabr	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
<b>Eksportni qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish sohasida</b>			
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagi "Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6042-son farmoniga muvofiq Hukumat komissiyasi tomonidan mahalliy eksport qiluvchilarni Yevropa bozoriga kirib borishi hamda Yevropa standartlarini joriy etishi bo'yicha takliflar kiritish.	2022-yil sentabr	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
2	O'zbekiston tomonidan "Preferensiyalarning bosh tizimi plyus" ("GSP+") tizimi doirasida Yevropa Ittifoqi bozoriga mahsulotlar eksport hajmlarini ko'paytirish bo'yicha takliflar tayyorlash.	2022-yil Sentabr-dekabr	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
3	2020-yilda eksport bo'yicha yo'qotilgan bozorlarni va hajmlarni tiklash.	Sentabr-dekabr	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
4	Tovar va xizmatlar eksportini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va sotish bozorlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan takliflar tayyorlash.	Har oyning 10-sanasiga qadar	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
5	Yangi eksport bozorlariga chiqish, 2022-yil mobaynida xorijiy davlatlarda tashkil etiladigan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokini ta'minlash, alohida mahsulot turlari uchun 5 ta yangi davlatlar bozorini o'zlashtirish choralarini ko'rish.	Har chorakda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
6	Tumanni eksport salohiyatini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni tashqi bozor talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.	Har chorakda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
7	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida yo'l qo'yilgan qo'llanmalar bartaraf etish maqsadida takroriy ekinlarni to'g'ri joylashtirish va eksportga yo'naltirilishini ta'minlash.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
<b>Xalqaro hamkorlik masalalari sohasida</b>			
1	Eksport qiluvchi korxonalar bilan "GSP+" umumiy imtiyozlar tizimi bo'yicha seminarlar tashkil etish, mahalliy brendlarni Yevropa bozorlariga keng targ'ib qilish borasidagi ishlarni kuchaytirish choralarini ko'rish.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
II. 2022-yil II yarim yillikda belgilangan ustuvor vazifalarini amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar			
<b>Investitsiyalar masalalari sohasida</b>			
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning viloyatga tashriflari davomida taqdimoti o'tkazilgan va tasdiqlangan investitsiya loyihalarini ishga tushirish choralarini ko'rish.	Har chorak yakuni bilan keyingi oyning 15-sanasiga qadar	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
2	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalari o'z vaqtida va samarali amalga oshirilish choralarini ko'rish.	Har oyning 15-sanasiga qadar	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
3	Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni nazorat va monitoring qilish, avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali Investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalari, shu jumladan, ishga tushiriladigan yirik loyihalar, shuningdek, 2017-2021-yillarda foydalanishga topshirilgan quvvatlar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini ta'minlash.	Har oyning 10-sanasiga qadar	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
4	Zamonaviy loyiha boshqaruvi tizimi ("project management") joriy etilishi natijasida strategic ahamiyatga ega loyihalarni samarali boshqarish va o'z vaqtida sifatli amalga oshirish.	2022-yil oktabr	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
<b>Tumanning eksportini rivojlantirish sohasida</b>			
1	Eksport prognozining ijrosini ta'minlash bo'yicha tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi tomonidan o'tkaziladigan tahliliy yig'ilishlar muhokamasida ishtirok etib borish.	2022-yil II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
2	2022-yilda o'tkaziladigan xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda mahalliy korxonalarining ishtirokini ta'minlash hamda tadbirlar davomida eksport shartnomalari imzolalanishini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganib borish va tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Har oyning 15-sanasiga qadar	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
3	2022-yilning II yarim yilligida jahon iqtisodiyoti va tovar-xomashyo bozorlari kon'yunkturasining rivojlanish istiqbollari tahlil qilinishi hamda uning asosida asosiy eksport pozitsiyalari bo'yicha narxlar kotirovkalarining muntazam tahlili natijasiga asosan tumanda aniq vazifalarni belgilab olish va zarur choralarni ko'rish.	II yarim yillikda	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
<b>IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va Hukumat qarorlari ijrosini maqsadli o'rganish</b>			
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6166-sonli farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5132-sonli qarori ijrosini ta'minlash.	2022-yil oktabr-dekabr	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar
2	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4300-son qarori ijrosini hududlarga chiqib o'rganish va muhokama etish.	Tasdiqlangan grafik asosida	Tuman hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i, tegishli korxonalar va tashkilotlar

T/r	Ustuvor vazifalar O'rganilayotgan masalalar mavzusi	Ijro muddati	Mas'ullar
